

BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 686,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024- yilga nisbatan 362,1 mln. AQSH dollariga yoki 27,3 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 414,0 mln. AQSH dollariga (2024-yilga nisbatan 32,8 % ga ko'paydi) va import hajmi 1 272,7 mln. AQSH dollariga (25,6 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 858,7 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2023y.	2024y.	2025y.
Rossiya	420,7	388,1	584,5
XXR	288,7	377,0	339,8
Turkmaniston	87,2	100,6	157,5
Afgoniston	54,2	68,0	133,4
Eron	39,8	92,6	75,4
Qozog'iston	64,7	62,4	70,6
BAA	6,2	5,2	56,5
Turkiya	74,5	51,5	39,2
Qirgiz Respublikasi	15,7	16,9	20,9
Germaniya	29,8	38,7	20,6
Hindiston	12,9	10,3	20,5
Tojikiston	24,1	14,0	20,4
Daniya	0,3	0,5	14,8
Pokiston	3,7	5,6	9,9
Italiya	1,7	3,0	9,7
AQSH	0,8	10,0	8,4
Belarus	9,5	11,3	7,9
Polsha	11,1	7,0	7,1
Gonkong	1,2	1,2	6,8
Koreya Respublikasi	8,0	5,1	6,2

Buxoro viloyati 88 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (34,7 %), XXR da (20,1 %), Turkmanistonda (9,3 %) Afg'onistonda (7,9 %) va Eronda (4,5 %), qayd etilgan.

II. BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI


2.1- jadval

Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	311,7	414,0	103,4	132,8	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,2	42,5	95,2	2,1 m.	6,5	10,3
Ichimliklar va tamaki	2,3	2,1	68,0	93,6	0,7	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16,1	9,7	130,2	60,4	5,2	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	61,5	114,8	98,8	186,7	19,7	27,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,3	0,5	8,9 m.	11,6	1,4	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,1	4,7	63,3	91,5	1,6	1,1
Sanoat tovarlari	135,6	101,4	96,3	74,7	43,5	24,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	6,3	60,5	103,5	9,5 m.	2,0	14,6
Turli xil tayyor buyumlar	17,2	22,7	99,4	132,9	5,6	5,6
Xizmatlar	43,1	55,1	145,8	127,6	13,8	13,3

Mavzugadoirhavola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 86,7 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (24,5 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (27,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,3 %) va mashinalar va transport asbob-uskunolari (14,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln.AQSHdollari)



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2025-yil yanvar-dekabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Afg'oniston (32,0 %), Rossiya (31,4 %), Qozog'iston (6,3 %), Tojikiston (3,8 %), Turkmaniston (2,6 %), Pokiston (2,3 %), Qirg'iston (2,2 %), Germaniya (1,9 %), XXR (1,5 %) va Eron (1,4 %), kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 85,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 55,1 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 13,3 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 27,6 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (20,1 %), safarlar (turizm) (14,2 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (9,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (56,3 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. BUXORO VILOYATINING IMPORTI

2025-yilning yanvar-dekabr oyida import hajmi 1 272,7 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 25,6 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng kata ulush, Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (36,6 %), Mashinalar va transport asbob-uskunolari

(27,0 %), sanoat tovarlari (13,0 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Buxoro viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Jami import	1 012,9	1 272,7	111,2	125,6	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlarivativirikhayvonlar	20,9	28,6	85,9	136,8	2,1	2,2
Ichimliklarvatamaki	0,8	3,2	9,1 m.	4,1 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idantashqari	19,3	37,2	75,8	192,9	1,9	2,9
Mineral yoqilg'i, yog'lashmoylarivashungao'xshashmateriallar	334,1	465,3	92,3	139,3	33,0	36,6
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	1,2	0,7	95,7	64,5	0,1	0,1
Kimyoviyvositalarvashungao'xshashmahsulotlar	80,2	163,7	88,6	2,0 m.	7,9	12,9
Sanoattovarlar	64,6	165,7	92,8	2,6 m.	6,4	13,0
Mashinalarva transport asbob-uskunalar	275,7	343,7	135,1	124,7	27,2	27,0
Turli xil tayyor buyumlar	209,6	64,1	157,3	30,6	20,7	5,0
Boshqatovarlar						
Xizmatlar	6,5	0,5	20,9 m.	7,2	0,6	0,0

Mavzuga doir havola: [Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 259,8 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 1 272,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2025-yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyati 74 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (35,7 %), XXR (26,2 %), Turkmaniston (11,5 %), Eron (5,5 %), BAA (4,4 %), Qozog'iston (3,5 %) va Turkiya (2,7 %) jami importning 89,5 % ni tashkiletdi.

Mavzuga doir havola: [Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100,0 %), ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tiyulgan va bojxona deklaratsiyasida hisobga oliniyulgan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Boshqarma boshlig'i: U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8000)	Ijrochi: Z. Saidova Tel: +998655058000 (8040) e-pochta: : info@buxstat.uz buxstat@exat.uz	Manzil: 100170, Buxoro sh., S.Ayni ko'chasi, 3
--	--	--	--